



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2021 - yil 27 - dekabr

VI-39-144-8-0-K/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

### **Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan viloyat Soliq boshqarmasi boshlig'i S.Eshmatovning bergan hisoboti tinglanib va bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi **qaror qiladi**.

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov)ga:

yer solig'ining amaldagi stavkalariga 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi bo'yicha taklif kiritilganligi hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish hamda televideniye orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig'i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashlari yuzasidan ma'lumotlarni ta'minlab berish;

elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, elektr ta'minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o'xshash inshootlar band etgan yerlar 2022-yil uchun har bir tuman va shahar uchun o'rtacha soliq stavkasi asosida yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan belgilanishi va 5-yanvargacha soliq to'lovchilarga yetkazilishini ta'minlash;

jismoniy shaxslarning yer maydonlari uchun olinadigan yer solig‘i (turistik zonalarda joylashgan yer uchastkalaridan tashqari) summasi 2021-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida har chorak yakunida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarini birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning viloyat va tumanlar iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida televideniye, radio, rasmiy sahifalar orqali ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Sessiya raisi**



**Bobolov T.A.**

Халқ депутатлари Сурхондарё вилоят Кенгашининг  
2021 йил 27 декабрдаги  
VI-39-144-8-0-К/21-сон қарорига  
1-илова

## Surxondaryo viloyati bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun belgilangan soliq stavkasining o'zgarishi

№	Shahar, tumanlar nomi	(1 gektarga, ming so'mda)				(1 kv.m ga, so'mda)			
		2021-yil		2022-yil		2021 yilga nisbatan farqi, summada		2021 yilga nisbatan farqi, %	
		Yuridik	Jismoniy	Yuridik	Jismoniy	Yuridik	Jismoniy	Yuridik	Jismoniy
		Soliq stavkasining aniq miqdori	Soliq stavkasining aniq miqdori	Soliq stavkasining aniq miqdori	Soliq stavkasining aniq miqdori				
<i>A</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>
1	Termiz shahri	30 550,00	288,08	32 500,00	304,20	1 950,00	16,12	106,38	105,60
2	Angor tumani	25 850,00	243,76	27 500,00	257,40	1 650,00	13,64	106,38	105,60
3	Oltinsoy tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
4	Boysun tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
5	Muzrabot tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
6	Denov tumani	28 200,00	265,92	30 000,00	280,80	1 800,00	14,88	106,38	105,60
7	Jarqo'rg'on tumani	25 850,00	243,76	27 500,00	257,40	1 650,00	13,64	106,38	105,60
8	Qumqo'rg'on tumani	24 675,00	232,68	26 250,00	245,70	1 575,00	13,02	106,38	105,60
9	Qiziriq tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
10	Sariosiyo tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
11	Termiz tumani	25 145,00	237,11	26 750,00	250,38	1 605,00	13,27	106,38	105,60

12	Sherobod tumani	25 850,00	243,76	25 000,00	234,00	-850,00	-9,76	96,71	96,00
13	Shoʻrchi tumani	27 025,00	254,84	28 750,00	269,10	1 725,00	14,26	106,38	105,60
14	Uzun tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
15	Bandixon tumani	23 500,00	221,60	25 000,00	234,00	1 500,00	12,40	106,38	105,60
	<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>25 176,33</b>	<b>237,41</b>	<b>26 783,33</b>	<b>250,69</b>	<b>1 607,00</b>	<b>13,28</b>	<b>106,38</b>	<b>105,60</b>